

REZYUME. Mazkur maqolada o'quvchilarda kasbiy tanlov jarayonining psixologik xususiyatlari tadqiq etilgan. Kasbiy tanlovning shaxsiy rivojlanish, akademik motivatsiya va ijtimoiy omillar bilan o'zaro bog'liqligi tahlil qilingan. Tadqiqot davomida 16–18 yoshdagi 120 nafar o'quvchi ishtirokida bir qator psixologik metodikalar yordamida kasbiy moyillik va akademik motivatsiya darajalari aniqlangan. Natijalar kasbiy moyillik darajasi yuqori bo'lgan o'quvchilarda akademik motivatsiya darajasi ham yuqori bo'lishi mumkinligini ko'rsatdi. Muallif psixologik diagnostika va maslahat xizmatlari orqali o'quvchilarni to'g'ri kasbga yo'naltirish zarurligini ta'kidlaydi hamda ushbu jarayonda maktab psixologlari va ota-onalarning o'rni muhim ekanligini asoslab beradi.

РЕЗЮМЕ. В данной статье исследуются психологические особенности процесса профессионального выбора у учащихся. Анализируется взаимосвязь профессионального выбора с личностным развитием, академической мотивацией и социальными факторами. В ходе исследования с участием 120 учеников в возрасте 16-18 лет с использованием ряда психологических методов были определены уровни профессиональной направленности и академической мотивации. Результаты показали, что у учащихся с высоким уровнем профессиональной направленности также наблюдается высокая академическая мотивация. Автор подчеркивает необходимость профессионального ориентирования учащихся с помощью психологической диагностики и консультационных услуг, а также обосновывает важную роль школьных психологов и родителей в этом процессе.

SUMMARY. This article explores the psychological characteristics of the career choice process among students. The interrelation between career choice, personal development, academic motivation, and social factors is analyzed. The study involved 120 students aged 16–18 and applied several psychological methods to assess their levels of career inclination and academic motivation. The results indicated that students with a high level of career inclination also demonstrated high academic motivation. The author emphasizes the necessity of guiding students toward suitable careers through psychological diagnostics and counseling services and highlights the critical role of school psychologists and parents in this process.

IJTIMOIIY-PSIXOLOGIK TADQIQOTLARD AVLODLAR TASNIFI

P.Abibullaeva – *assistent o'qituvchi*

Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti

Tayanch so'zlar: avlodlar nazariyasi, “BB” (Bebi-Bumerlar) avlodi, “X” avlod, “Y” avlod (milleniallar), “Z” avlod (zumerlar), shaxslilik sifatleri, ustuvor qadriyatlar.

Ключевые слова: теория поколений, поколение “BB” (Бэби-бумеры), поколение “X”, поколение “Y” (миллениалы), поколение “Z” (зумеры), личностные качества, приоритетные ценности.

Key words: generation theory, “BB” generation (Baby Boomers), “X” generation, “Y” generation (Millennials), “Z” generation (Zumers), personal qualities, priority values.

Kirish. Bugun dunyoning o'zgarishi tezlashmoqda, avlodlar o'rniga yangi avlodlar kelmoqda, ular yangi g'oyalar, qadriyatlar va hayotga turli qarashlarni olib kelmoqda. Har bir avlodning o'ziga xos dunyoqarashi, hayotga munosabati, vazifasi va o'ziga xos bir-biridan farqli jihatlari mavjud. Bu oila, ijtimoiy hayot, dunyoqarash va kasb kabi turli omillar tasirida shakllanadi.

Adabiyotlar tahlili. Oxirgi yillarda avlodlar almashinuviga ilm-fanning ham qiziqishi ortib, mazkur jarayon olimlarimiz tamonidan chuqur o'rganilmoqda. “Avlod” tushunchasini nazariy jihatdan tadqiq etgan xorij olimlaridan Uilyam Strauss va Nil Xou [1], Massey Morris [2] va mustaqil davlatlar hamdo'stligi olimlaridan V.I.Pishik [3], A.V.Gavrilova [4], I.P.Dyachenko [5] va boshqalarning tadqiqotlari diqqatga sazovordir. Shuningdek, turli avlod vakillariga doir ma'naviy meros va unga avlodlararo munosabat mahalliy olimlarimiz M.Bekmurodov [6], S.Kalanova [7], N.Dalimova [8] tadqiqotlarida o'rganilgan. Shuningdek, N.Umarovning “Shaxs iqtisodiy ijtimoiylashuvi jarayonining transformatsiyalashuvi: avlodlar nazariyasidan amaliyot sari” maqolasida avlodlar tasnifiga ko'ra shaxsning muvaffaqiyatli iqtisodiy ijtimoiylashuvga zamin bo'layotgan ustuvor qadriyatlari va ushbu jarayonga to'siq bo'layotgan

omillar mazmuni yoritilgan. Ular “avlod” tushunchasiga demografik, antropologik, tarixiy, xronologik va ramziy tomondan ta'rif berishga harakat qilishgan. Bunga V.I.Pishik quyidagicha: “bir vaqtning o'zida tug'ilgan, dunyo bo'ylab o'xshash manzara, turmush tarzi orqali birlashgan, aloqa strategiyalari mos keluvchi, fikrlash uslublari bir xil, umumiy madaniy kelib chiqish va tarixiy rivojlanish holati yaqin odamlarning ijtimoiy guruhi – **avloddir**”, – deb ta'rif beradi [9].

Internet ma'lumotlarida avlod mavzuga oid ko'plab maqolalarni topish mumkin.

Tahlil va natijalar. Keng qamrovli nazariy tahlillarga ko'ra, har bir avlod o'ziga xos xususiyatga ega va avlodlarni toyfalash turli yillar oralig'idagi davrlarga bo'lingan. Buning sababi sifatida, bir avlodning tug'ilgan yillari geografiyasiga qarab farq qilishini yoki bir avlodga asosiy voqealarning turli mintaqalarda va mamlakatlarda har xil ta'sir qilishini ko'ramiz. Chunki, mamlakatlarning rivojlanish tendensiyalari turli vaqtlar oralig'ida turlicha bo'lishi mumkin. Ya'ni, real hayotda avlodlar o'rtasidagi vaqt chegaralari mintaqaning geografik, siyosiy va iqtisodiy holatiga qarab biroz farq qilishi mumkin [9].

Shu sababli, O'zbekiston Respublikasi mintaqasida mamlakatimizning rivojlanish tendensiyalarini

hisobga olib “Baby-Boomers”, “X”, “Y” va “Z” avlodlar o’rtasida tug’ilish davriyligini quyidagicha belgilashimiz mumkin [1]:

“Baby-Boomers” generation	1946-1963	“Bebi bumerlar” yoki Chaqoloq bumi avlodi
“X” generation	1964-1984	“Iks” avlodi
“Y” generation	1985-1996	“Y” Igrek avlodi yoki Millenniallar
“Z” generation	1997-2012	“Z” avlodi yoki Zumerlar

1. Bebi Bumerlar – 1946-yildan 1963-yilgacha tug’ilganlar bugungi kunda eng katta avlod hisoblanib, ular uchun katta rejalar va yutuqlar muhim hisoblanadi, ya’ni ular oilaviy hayot va barqarorlikni qadrlaydi. Bebi Bumerlar oila qurish, ko’chmas mulkka egalik qilish va farzand tarbiyasini asosiy vazifa deb bilgan. Ular telefon, televideniye va keyinchalik kompyuter kabi texnologiyalarning rivojlanishiga guvoh bo’lgan va bu o’zgarishlarga moslashgan. Bebi Bumerlar iqtisodiyotning turli sohalarida yetakchi bo’lishgan. Ular mehnat bozorining eng yirik qismini tashkil qilib, o’z ish faoliyati davomida ko’plab kompaniyalarni rivojlantirishgan. Bugungi kunda baby boomerlar dunyo bo’ylab katta demografik guruhni tashkil etadi. Ularning ko’pchiligi nafaqaga chiqayotgan bo’lib, bu sog’liqni saqlash tizimi va pensiya jamg’armalariga bosimni oshiradi. Ularning tajribasi va qadriyatlar bugungi kunda ham dolzarbligini yo’qotmaydi.

2. 1964-yildan 1984-yilgacha tug’ilganlar - “X” avlodi. Ushbu avlod vakillari noyob bo’lishni yaxshi ko’radi, chunki ular bolaligida juda ko’p narsalarni ko’rgan va endi boshqalardan farqli bo’lishi ular uchun juda muhimdir. “X” avlodi professionallik va chuqur bilimlarni qadrlashadi [3].

X avlodi, 1964-1984-yillarda tug’ilganlarning afzal va kuchli tomonlari:

- barcha avlodlar ichida eng ko’p sonli;
- har qanday vaziyatga yaxshi moslashadi;
- turli auditoriya bilan muvaffaqiyatli muloqotga kirishadi;
- barcha avlodlar ichida eng mustaqil;
- mas’uliyatli;
- asossiz maqtoovni yoqtirmaydi va o’zlari ham faqat ayrim hollarda maqtashadi;
- ko’p yillar davomida lavozimdan lavozimga xotirjam ko’tarilishadi;
- ular lavozimda ko’tarilishda ham, shaxsiy hayotda ham rivojlanishga, o’z ustida ishlashga intilishadi;
- ular uchun muvaffaqiyat bu – oila, uy, mashina va barqaror ish joyi.

“X” avlod bilan qanday ishlash kerak?

“X” avlod vakillari mukammal tashkilotchi, mustaqil va avtonom bo’lganligi sababli ularni cheklash yoki har bir qadam uchun hisobot berishga majburlash

kerak emas. Bunday harakatlar ko’p hollarda ularning motivatsiyasi yo’qolishiga olib kelishi mumkin. Ular qiyinchiliklarni yengishni yoqtirishadi, shuningdek, moslashuvchanlik (adaptatsiya) darajasi yuqori bo’lganligi sababli og’ir sharoitlarda yaxshi ishlashadi. “X” avlodi hayot sinovlariga har doim tayyor. Ushbu avlod vakillariga yangi loyihani noldan oxirigacha ishonchli tarzda topshirish mumkin.

Hayot va ish o’rtasidagi muvozanat muhim bo’lganligi sababli, ularga iloji boricha moslashuvchan ish jadvali sharoitini yaratib bergan yaxshi.

Bu avlod ishlagan joyiga ish sifatini, qat’iy intizom va o’zgarishlarga moslashish (adaptivlik) kabi xususiyatlarni olib kelishi mumkin. Ular millenniallar uchun yaxshi murabbiylar bo’ladi[5].

3. 1985-yildan 1996-yilgacha tug’ilganlar – “Y” yoki millenniallar. Ular bir ming yillikdan ikkinchisiga o’tganlar bo’lib, global tarmoq avlodi yoki keyingi (Next) avlod hisoblanadi. Bu avlod vakillari uchun o’z mamlakatini va dunyoni yaxshiroq qilish muhim hamda ular yangilik va ijobiy munosabatni qadrlashadi. Millenniallar global qadriyatlarga va o’z-o’zini bilishga katta e’tibor berishadi.

Y avlodi, 1985-1996-yillarda tug’ilganlarning o’ziga xos xususiyatlari:

- mustaqil hayotni boshlashga shoshilmasligi;
- ishdan tashqari o’qish, sport, sevimli mashg’ulotlariga (xobbi) ko’p vaqt ajratishi;
- ishda psixologik qulaylikka (komfort) intilishi;
- yuqori texnik (kompyuter) savodxonlikka ega;
- yuqori lavozimlarga va yuqori maosh olishga harakat qilishadi;
- biron bir to’siq, chegaralarni qo’yilishini yoqtirishmaydi;
- katta muvaffaqiyatga olib keladigan g’oya uchun ishlashi mumkin;
- onlayn 24/7;
- o’z sog’lig’iga e’tibor beradi;
- mehnatkash va nostandart fikrlashga ega.

“Y” avlod bilan qanday ishlash kerak?

Ular uchun aniq maqsad va lavozimda ko’tarilish imkoniyati juda muhim omil hisoblanadi. Ular uchun yangi marralarni qo’yib, erishgan yutuqlari tashkilotning ravnaqi va farovonligi uchun qanchalik qadrli ekanini ta’kidlab o’tish lozim.

Jamoaviy va guruh loyihalarida ulardan foydalanish o’z samarasini beradi. Aynan shu kabi faoliyatda “Y” avlodi vakillari o’z salohiyatini ochishga yordam beradi va ular o’zlarini qulay his qilishadi [4].

4. 1996-yildan 2012-yilgacha tug’ilganlar - “Z” yoki zumerlar. Ular uchun eng yuqori qadr-qimmat - bu uy. Zumerlar hamma narsada xavfsizlik va qulaylikni ustun qo’yishadi va buning uchun pul to’lashga ham tayyor. Ushbu avlod vakillarida hali barcha avlodga xos xususiyatlari aniqlanmagan [5].

1996-2012-yillarda tug’ilgan “Z” avlodi yoki zumerlarning o’ziga xos xususiyatlari:

- telefon yoki kompyuterga judayam bog‘liqligi;
- moddiy qadriyatlar muhim o‘rin egallamagan;
- tejamkor;
- o‘ziga yoqadigan ishni qidirishadi;
- ko‘p o‘qiydi, tillarni o‘rganadi, ular uchun ko‘p sohalarida rivojlangan bo‘lish muhim;
- hamma joyda va hamma narsada tenglik va kamsitish yo‘qligiga ishonishi;
- judayam optimist;
- ular uchun iloji yo‘q narsa mavjud emas hamda ular judayam shijoatli va yuqori marralarni egallashga katta e‘tibor berishadi;
- ular uchun o‘z-o‘zini anglash muhim;
- har doim aloqada.

“Z” avlod bilan qanday ishlash kerak?

Ular noyob mahsulotlarni yaratishga qiziqishadi va innovatsion imkoniyatlarni beradigan tashkilotlarda ishlaydi. Har doim aloqada bo‘lish va masofadan ishlash imkoniyati mavjud bo‘lganda, ofisda o‘tirib ishlash zarurati yo‘q, deb hisoblashadi.

“Z” avlod vakillari yoshligidan lavozim pog‘onasida o‘lish yo‘lini (karyera) tanlashni biladi. Ular atrofida mavjud bo‘lgan ko‘plab zamonaviy texnologiyalardan keng foydalanadi (vab-seminarlar, YouTube, podkastlar). Karyeradagi rivojlanishi ularning hayotida muhim rol o‘ynaydi, biroq bunga sabab pul emas, balki shaxsiy rivojlanishdir. Shaxsiy brendni rivojlantirish imkoniyati mavjudligi va boshqalardan ajralib turishi, lekin o‘zligini yo‘qotmaslik ular uchun katta ahamiyatga ega. Aksariyat “Z” vakillari o‘zlarini unikal startap loyihalarini ishlab chiqishga intiladi.

“Z” avlodi vakillari har kuni kamida 10 soat onlayn bo‘lib, har doim aloqada bo‘lishni yaxshi ko‘radi. Ular uchun ijtimoiy tarmoqlar orqali nafaqat do‘stlar bilan, balki butun dunyo bilan aloqani his etish juda muhimdir [5].

Mutaxassislar, ba’zida mazkur raqamli avlod vakillarini “IGen (Internet generation) – internet-avlod” deb ham atashadi. Chunki, bu avlod vakillari o‘zlarining hayotiy faoliyatlari mazmun-mohiyatini global tarmoq va smartfonlarsiz tasavvur qila olishmaydi.

“Z” avlod tarixdagi butun jahon iste’molchilarining 40 foizini tashkil etadi va bugungi kun holatida taxminiy daromadi 7 trillion dollarni tashkil qilishini ko‘rishimiz mumkin. Brendlar bo‘yicha global maslahatchi Reyd Litmanning fikricha, 2031-yilga borib “Z” avlod vakillari 33 trillion dollar daromadga ega bo‘lishib, “Y” avlod vakillari daromadidan oshib ketadi [6]. Tarixiy iqtisodiy ko‘rsatkichlar, har bir katta avlod vakillari dunyoni o‘z qiyofasida o‘zgartirishga intilishganini tasdiqlasada, “Z” avlodi buni hozir va kelajakda ham goh individual, goh jamoaviy munosabatlar ko‘rinishidagi raqamli harakatlar orqali amalga oshiradi.

Raqamli “Z” avlod uchun iqtisodiy ijtimoiylashuv jarayoniga to‘siq bo‘l(ayot)gan eng muhim omil – bu “diqqatning yetishmasligi”dir [9].

Xulosa. Har bir avlodning kuchli va zaif tomonlari mavjud. Ushbu o‘ziga xos farqlarni o‘rganish avlodlar o‘rtasidagi munosabatlarni yaxshiroq tushunishga, uning rivojlanishini bashorat qilishga va avlodlar o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarning samarali strategiyalarini ishlab chiqishga zamin yaratadi. Bu esa inson manfaatlari birlamchi bo‘lgan, iqtisodiy rivojlangan, ijtimoiy mukammal, barqaror jamiyatni barpo etishda ahamiyatlidir.

Adabiyotlar

1. Howe Neil, William Strauss. Generations: The History of America's Future, 1584 to 2069. – New York: «William Morrow and Company», 1991.
2. Massey Morris. The American Generations: Who They Are. How They Live. What They Think. Where They Are Going. – New York: «Penguin Books», 1996.
3. Пищик В.И. Поколения: социально-психологический анализ ментальности. // «Социальная психология и общество», 2011. № 2. – С. 80-88.
4. Дьяченко И.П. Особенности психологического развития поколения «Игрек» [Электронный ресурс]. URL: <http://www.scienceforum.ru/2013/176/5031> (дата обращения: 15.03.2019).
5. Гаврилова А.В. Социально-психологические особенности ментальности «Нового поколения». // Вестник Удмуртского университета. Серия «Философия. Психология. Педагогика». 2016. №2. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/sotsialno-psihologicheskie-osobennosti-mentalnosti-novogo-pokoleniya> (дата обращения: 15.03.2019)
6. Бекмуродов М. Здоровый образ жизни-основа гармонично развитого поколения. – Ташкент: 2010. – С. 338.
7. Каланова С. Поколенческий анализ современной социальной реальности: основные подходы. // «Социология и право», № 4 (34), 2016.
8. Dalimova N. Turli avlod vakillarining nikohga kirishish xususiyatlari hamda ayollardagi oila va kasbiy majburiyatlarning uyg‘unligi. // Markaziy Osiyoda jamiyat, gender va oila, 2022/1(2).
9. Umarova N. Sh. Shaxs iqtisodiy ijtimoiylashuvi jarayonining transformatsiyalashuvi: avlodlar nazariyasidan amaliyot sari. // «Замонавий Таълим» (Современное Образование) 2022. <https://cyberleninka.ru/article/n/shaxs-iqtisodiy-ijtimoiylashuvi-jarayonining-transformatsiyalashuvi-avlodlar-nazariyasidan-amaliyot-sari>